

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

TADJIYEV AZAMAT ALIBAYEVICH

**JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING
KRIMINALISTIK METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Tadjiyev Azamat Alibayevich

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasini takomillashtirish 3

Таджиев Азамат Алибайевич

Совершенствование криминалистической методики расследования преступлений против общественного порядка 27

Tadzhiev Azamat Alibaevich

Improvement of the forensic methodology for investigating crimes against public order 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

TADJIYEV AZAMAT ALIBAYEVICH

**JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING
KRIMINALISTIK METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu205 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://akadmvd.uz/nauka/deyatelnost-nauchnogo-soveta>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rashidov Bexzod Nurboyevich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xamdamov AbduvaliAxmedovich
yuridik fanlar doktori, professor

Astanov Istam Rustamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi
Tergov departamenti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-iyun kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akad.mvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD – 1570 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 7-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 7-iyun kungi № 17 raqamli reyestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar ortib bormoqda. BMTning jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda jamoat joylarida sodir etilayotgan jinoyatlar soni 15-20 foizga oshgan¹. Shu bilan birga, ularning aksariyati virtual makonida sodir etilmoqda. Xususan, so'nggi o'n yillikda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bezorilik, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni noqonuniy tashkil etish yoki o'tkazish bilan bog'liq jinoyatlar soni umumiy miqdori uch barobarga oshgan². Bu esa mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahonda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosan kriminalistik metodikani takomillashtirish maqsadida olib borilmoqda. Xususan, bezorilik, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanish tendensiyalari va yangi sharoitlarni hisobga olgan holda tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishning samarali va maqbul kriminalistik-taktik usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugun kriminalistik ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida nafaqat an'anaviy tergov qilish metodikasi va taktikasini takomillashtirish, balki ularni axborot texnologiyalarining global rivojlanishi nuqtayi nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqligi, raqamli kriminalistikani shakllantirish va kriminalistika fanida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda jinoyatchilikning umumiy tarkibida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar 2018-yilda 2,67 foizni, 2019-yilda 2,83 foizni, 2020-yilda 3,09 foizni, 2021-yilda 3,06 foizni, 2022-yilda 3,18 foizni va 2023-yilda 3,13 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 3,18 foizga yetdi. 2024-yilda bezorilik ko'rinishidagi jamoat tartibini buzish holatlari 2018-yilga nisbatan 2,35 barobar, qimor va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etish va o'tkazish esa 2,16 barobar ko'paygan³. Mazkur statistik ma'lumotlar ushbu jinoyatlarni o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa aynan kriminalistika sohasida jinoyatlarning sodir etilishi va ularni tergov qilish jarayonlari bilan bog'liq muammolarni har tomonlama tahlil qilishni, jumladan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligi va huquqiy zaruratini namoyon etadi.

Ushbu tadqiqot yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ URL: <https://www.unodc.org/unodc/ru/data-and-analysis/index.html> (Murojaat qilinlgan sana:25.01.2025)

² URL: <https://www.statista.com/topics/780/crime/#statisticChapter> (Murojaat qilinlgan sana: 25.01.2025)

³ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentining 2018-2024-yillardagi statistik ma'lumotlari

to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son "O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2025-yil 22-yanvardagi PQ-17-son "Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 121-son "O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi faoliyatni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ushbu muammoning ayrim jihatlari boshqa mavzu yoki huquq sohasi doirasida o'rganilgan bo'lib, jinoyat-protsessual huquqi sohasidagi o'zbek olimlari G.A. Abdumajidov, Z.F. Inog'omjonova, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, F.M. Muxitdinov, M.E. Muminov, Sh.A. Kulmatov, B.A. Rajabov, B.N. Rashidov, B.A. Saidov, A.B. Sabirbayeva, A.O. Sharafutdinov, U.A. To'xtasheva, va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni fosh etish, tergov qilish va oldini olishning kriminalistik jihatlari o'zbekistonlik kriminalist olimlar O.D. Allanazarov, S.N. Gordeyev, Sh.X. Komilov, T.B. Mamatqulov, A.A. Matchanov, K.A. Sabirov, T.R. Saitbayev, G.Z. To'lyaganova X.A. Turabbayev, A.A. Xamdamov hamda jinoyat huquqi sohasidagi olimlar R. Kabulov, A.A. Otajonov, M.M. Qalandarov, M.X. Rustamboyev, A.S. Yaqubov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning bir turi sifatida bezorilikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari bo'yicha bevosita dissertatsiya tadqiqotlarini 1999-yilda M.A. Utanov olib borgan. 2021-yilda, oradan 20-yil o'tgach, shu kabi tadqiqotni D.Y. Karaketova amalga oshirgan. 2024-yilda esa bezorilikni tergov qilish

metodikasini takomillashtirish bo'yicha S.T. Mirzaraimov va E.M. Nishonovlar tomonidan tadqiqot o'tkazilgan.

Xorijiy mamlakatlarda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, xususan, bezorilikni tergov qilish metodikasi masalalariga S.N. Vyazov, Y.I. Ovcharenko, Y.V. Ryabov, V.A. Shuruxnov, A.V. Ragulin (Rossiya Federatsiyasi), S.Y. Yerkenov, A. Ospanov (Qozog'iston Respublikasi), N.S. Bushkevich (Belarus Respublikasi), V.K. Baxchev, O.V. Antonyuk, M.M. Yefimov, N.N. Kononenko, D.G. Usatkin (Ukraina), A.A. Muxitdinov (Tojikiston Respublikasi), Ian K. Pepper, John Horswell (Buyuk Britaniya), David E. Learner, Barry A.J. Fisher, David R. Fisher (AQSH), Chris D.L. Hunt, Rod Gehl va Darryl Plecas (Kanada), Cameron S.D. Brown (Avstraliya), Seswantsho Godfrey Lebeya (Janubiy Afrika Respublikasi) kabi olimlar o'z ishlarini bag'ishlaganlar. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning yana bir turi – qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha O.V. Usenko va A.G. Sebyakinning (Rossiya) dissertatsiyalarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni tergov qilishda tezkor-taktik kombinatsiyalar va kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumotlarni olish bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqqanlar. Jinoyat-huquqiy jihatlarini A.S. Limar, S.O. Kormilseva, V.D. Legotkin, I.N. Mosechkin, O.P. Naumenko, R.A. Sevostyanov (Rossiya Federatsiyasi), V.S. Filyutovich-Gerasimenko (Ukraina) kabi olimlar o'rganganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya tayyorlangan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2022–2025-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasini takomillashtirish hamda tergovni olib boruvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ushbu mavzuga oid dissertatsiyalar, monografiyalar va boshqa maxsus adabiyotlarni tahlil qilish hamda tizimlashtirish orqali bezorilik va tavakkalchilikka asoslangan qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish va o'tkazishni tergov qilishning nazariy asoslarini o'rganish;

mazkur jinoyatlarning kriminalistik tavsifini ularni tergov qilish metodikasining muhim elementi sifatida yoritib berish;

ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining huquqni qo'llash amaliyotida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasi asosiy mazmunini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning maxsus metodikasi xususiyatlarini yoritish va bunday jinoyatlar haqidagi xabarlar asosida dastlabki tergov tekshiruvini o'tkazish uchun harakatlar algoritmini ishlab chiqish;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning boshlang'ich bosqichida tergov harakatlarini o'tkazishning o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning keyingi va yakuniy bosqichlarida tergov harakatlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va tahlil etish;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning zamonaviy kriminalistik metodikasini ishlab chiqish, shuningdek, uni ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining huquqni qo'llash amaliyotiga joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqot obyekti jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va tergov qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmeti jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasi bilan bog'liq yuridik fandagi konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar, ushbu jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti, shuningdek tergov qilish metodikasini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqotni olib borishda kuzatish, tarixiy va mantiqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, sintez kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning qaroriga ko'ra shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishda tanib oluvchining xavfsizligini ta'minlash maqsadida bunday tergov harakatini tanib olinuvchining tanib oluvchini ko'ra olmaydigan sharoitlarda o'tkazish zarurligi asoslantirilgan;

ish uchun ahamiyatli bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslar, faktlar va holatlar haqida bilishi yoki xabardor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsdan ariza yoki tushuntirish olish maqsadida tergovning dastlabki bosqichlarida suhbat shaklida o'tkaziladigan so'rov kabi protsessual harakatni amaliyotga joriy etish zarurati asoslanadi;

ichki ishlar organlarining ma'muriy binolariga tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha olib kelingan shaxslardan tushuntirishlar olish, ularni ushlab turish, shaxsiy tintuv o'tkazish va buyumlarni olib qo'yish videokuzatuv tizimi bilan bog'langan, texnik jihatdan soz video qayd etish vositalari bilan maxsus jihozlangan so'roq xonalarida o'tkazilishining majburiyligi asoslantirilgan;

qonun bilan kafolatlangan ishtirokchilarning huquqlarini buzgan holda noqonuniy usullar orqali protsessual harakatlar yoki boshqa tadbirlar o'tkazish natijasida olingan ma'lumotlarni dalil sifatida tan olishning yo'l qo'yib bo'lmazligi asoslanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi" tushunchasining yangi mualliflik ta'rifi, shuningdek, ushbu jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatlarini o'tkazishda raqamli videoyozuvni qo'llash taktikasi ishlab chiqilgan va tergov amaliyotiga joriy etilgan, shuningdek guruh bo'lib sodir etilgan jinoyatlarni

tergov qilish jarayonida jamoat joylaridagi videoyozuvlardan foydalanish usullari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan;

qimor yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etish to'g'risida kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumotlarni o'z ichiga olgan raqamli tashuvchilarni ko'zdan kechirish taktikasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

bezorilik, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish va o'tkazish usuliga qarab jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlarida tergovchi (surishtiruvchi) va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar harakatlarining mualliflik algoritmi ishlab chiqilgan hamda uni qo'llash bo'yicha eng maqbul amaliy tavsiyalar shakllantirilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyotining ilg'or tajribasini o'rganishga asoslanadi. So'rovnoma va suhbat shaklida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan, statistik ma'lumotlar umumlashtirilib, tahlil qilingan.

Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti va Huquqiy statistika hamda tezkor-hisob ma'lumotlarini qayd etish markazining 2018-2024-yillar va 2025-yilning 5 oyi uchun rasmiy statistik ma'lumotlari, 400 nafar tergovchi va surishtiruvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, shuningdek, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar bo'yicha 500 ta tergovga qadar tekshiruv materiallari 300 dan ortiq jinoyat ishini o'rganish natijalari umumlashtirilgan. Asosiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan hamda huquqni qo'llash amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada bayon etilgan xulosa, taklif va tavsiyalardan kelgusi tadqiqotlarda, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotida, jinoyat-protsessual qonunchilikning tegishli normalarini sharhlashda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning maxsus kriminalistik metodikasini takomillashtirish imkonini beradi, bu esa bunday faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning qarori bilan shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishda tanib oluvchining xavfsizligini ta'minlash, tanib olinuvchining tanib oluvchini ko'rish imkoniyatini istisno etadigan sharoitlarda o'tkazish zarurligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O'RQ-542-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari*

qo'mitasining 2022-yil 16-maydagi 04/2-10/1357-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquqlarini yanada ishonchliroq ta'minlash, shuningdek, jinoyatlarni tergov qilishda taktik usullardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini bergan;

so'rov protsessual harakat sifatida ish uchun ahamiyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar, faktlar va holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni biladigan yoki bilishi mumkin bo'lgan shaxs bilan bevosita muloqot davomida ma'lumot, ariza yoxud tushuntirish olish maqsadida protsessual yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish jarayonida o'tkaziladigan suhbatdan iborat bo'lishi lozimligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2024-yil 26-fevraldagi 101-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari binolarida ayrim protsessual harakatlarni yoki boshqa tadbirlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"ning 1-bandi 9-kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 31-maydagi 18/3764-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi xabarlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazishda olingan ma'lumotlardan maqbul dalillar sifatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan, shuningdek, ishlarni tergov qilishda so'rovning qonuniyligi va taktik jihatdan to'g'ri o'tkazilishini ta'minlashga xizmat qilgan;

tergovga qadar tekshiruv materiallari bo'yicha ichki ishlar organlarining ma'muriy binolariga olib kelingan shaxslarga nisbatan ayrim protsessual harakatlarni (tushuntirishlar olish, shaxsiy tintuv, olib qo'yish, ushlab turish) videokuzatuv tizimi bilan integratsiyalashgan, texnik jihatdan soz videoyozuv vositalari bilan maxsus jihozlangan so'roq xonalarida o'tkazish majburiyligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2024-yil 26-fevraldagi 101-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari binolarida ayrim protsessual harakatlarni yoki boshqa tadbirlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"ning 1-bandi 3-kichik bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 31-maydagi 18/3764-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning inobatga olinishi ichki ishlar organlari vakolatiga kiruvchi jinoyatlarni tergov qilishda ichki ishlar organlarining ma'muriy binolariga olib kelingan shaxslarga nisbatan tushuntirish olish, shuningdek, ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish ko'rinishidagi protsessual harakatlarni amalga oshirishda shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatli ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

ishtirokchilarning qonun bilan kafolatlangan huquqlarini va qonun hujjatlari talablarini buzgan holda noqonuniy usullar bilan protsessual harakatlar yoki boshqa tadbirlarni o'tkazishda olingan dalillarni nomaqbul deb topish zarurligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2024-yil 26-fevraldagi 101-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari binolarida ayrim protsessual harakatlarni yoki boshqa tadbirlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"ning 28-kichik bandini shakllantirishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 31-maydagi 18/3764-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi jinoyatlarni, shu jumladan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda olingan dalillarni nomaqbul deb topish kabi salbiy holatlarning oldini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusiga oid jami 19 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 5 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta, ilmiy anjumanlarda 12 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, o'rganilayotgan muammoning tadqiq etilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasi mazmunining kriminalistik jihatlarini”** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat. Bobda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi, shuningdek ichki ishlar organlarining huquqni qo'llash amaliyotida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning maxsus kriminalistik metodikasi mazmunining asosiy jihatlarini yoritib berilgan.

Dissertant jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasini tavsiflovchi atamalar mazmuni haqida olimlarning (N.S. Bushkevich, V.I. Zaxarevskiy, Y.I. Ovcharenko, Y.V. Ryabov, E.N. Xarin, V.A. Shuruxnov, K.V. Baxchev, Y.V. Antonyuk, M.M. Yefimov, G.D. Usatkin, O.V. Usenko va boshqalar) ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ular bilan ilmiy munozaraga kirishib, “jamoat joyi”, “jamoat tartibi”, “bezorilikni tergov qilishning xususiy metodikasi”, “noqonuniy qimor o'yinlarini tashkil etishni tergov qilishning xususiy metodikasi” tushunchalariga mualliflik ta'riflarini ishlab chiqqan.

Dissertant D.Y. Karaketovanning bezorilikning kriminologik jihatlarini va S.T. Mirzaraimovning bu toifa jinoyatlar tergovining kriminalistik tomonlari o'rganilgan ishlarini tanqidiy tahlil qiladi, ularning kriminalistik tavsif elementlariga qisman to'xtalganliklarini qayd etib, kriminalistik tavsifga kiruvchi elementlar keng ekanligi to'g'risidagi o'z fikrini bildirgan. Y.I. Ovcharenko, G.U. Axmedova, Y.V. Ryabov, A.A. Matchanov, N.S. Bushkevich va E.M. Nishonovlarning bezorilik sodir etilishidagi iz manzarasi nuqtai nazaridan ushbu muammoni o'rganishga oid fikrlarini tahlil qilib, o'zining mualliflik nuqtai nazarini shakllantirgan. O.V. Usenko, R.A. Pinyag, Z.N. Toporetskaya va boshqa olimlarning qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish va o'tkazishning kriminalistik tavsifi haqidagi fikrlarini o'rganib, ilmiy bahsga kirishgan. Tadqiqotlari asosida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov

qilish metodikasining zaruriy elementi sifatida kriminalistik tavsif mazmuniga mualliflik ta'rifi ishlab chiqqan.

Dissertantning fikricha, bezorilik va qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etishning kriminalistik tavsifi quyidagi tarkibiy elementlar bilan tavsiflanadi: 1) jinoiy tajovuzni sodir etish joyi, vaqti, usuli va jinoyat predmeti; 2) tipik tergov vaziyatlari; 3) jinoyatning xos izlari (iz manzarasi) va ularning ehtimoliy joylashuvi; 4) jabrlanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar; 5) ayblanuvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar. Shundan kelib chiqib, bezorilik yoki qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish kabi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan belgilar to'g'risidagi bilimlarning yaxlit tizimini ifodalaydi, degan xulosaga kelinadi.

O'tkazilgan anketa so'rovi natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan tergovchi, surishtiruvchilarning 92 foizi "jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish, tergov qilish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egaligi"ni ijobiy baholaganligi aniqlangan⁴. Dissertant jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga oid 300 ta jinoyat ishini tahlil qilish va o'rganish asosida kriminalistik tavsif elementlari (ijro etish usullari, tipik tergov vaziyatlari, ayblanuvchilar va jabrlanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qoldiriladigan izlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar)ga tayanib, ushbu toifadagi g'ayriqonuniy qilmishlarni tavsiflovchi barqaror qonuniyatlar va tipik belgilarni ajratib ko'rsatgan.

Tadqiqotchi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasiga oid mavjud ilmiy qarashlarni (G.A. Abdumajidov, M.X. Rustambayev, Y.P. Garmayev, V.G. Yengibaryan, F.M. Muxitdinov, B.A. Rajabov, S.A. Kuyemjiyeva, V.D. Zelenskiy, Y.A. Abdulxakov, O.D. Allanazarov, A.A. Xakberdiyev va boshqalar) tahlil qilib, ilmiy munozaraga kirishib, ba'zi bahsli nuqtalarni, jumladan tergov jarayonini ma'lum bosqichlarga ajratish masalasiga taalluqli ekanligini ko'rsatib o'tgan. Izlanuvchi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasi mazmuni tushunchasini ishlab chiqqan bo'lib, unga ko'ra bu tushuncha *dinamik tashkiliy-funksional tuzilmani* anglatadi.

Yuqorida tilga olingan olimlar, xususan N.S.Bushkevich bilan olib borilgan muhokamarlar natijasida dissertant shunday xulosaga keladi: bezorilik hamda qimor va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etish yoki o'tkazishni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasi *tekshiruv, boshlang'ich, keyingi va yakuniy* bosqichlardan iborat. Ko'rsatilgan jinoyatlarni tergov qilishning har bir bosqichida tipik tergov vaziyatlari yuzaga keladi. Bunda tergov vaziyatlari deganda, tergovning borishiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv omillar tushuniladi. Muallif tomonidan "*jamoat joyi*" tushunchasi taklif etilgan bo'lib, u noma'lum shaxslar doirasi *vaqtinchalik, doimiy yoki ma'lum vaqt oralig'ida* kirishi va foydalanishi uchun erkin bo'lgan ma'lum bir hudud, makon (shu jumladan, virtual), xonani o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha ham bezorilikni, ham qimor

⁴ Dissertatsiyaning 2-ilovasi

o'yinlarini noqonuniy tashkil etishni tergov qilishning xususiy metodikasi mohiyatini anglash uchun muhimdir.

Tadqiqot ishida "*qimor o'yini*" tushunchasiga yangi ta'rif berilgan bo'lib, u o'yin boshlanishidan oldin belgilangan qoidalarga ko'ra ikki yoki undan ortiq o'yinchi o'rtasida tuzilgan, tavakkalchilikka asoslangan, ehtimoliy yutuq haqidagi kelishuvni anglatadi. Bunda garov puli to'lanishi *qimor o'yinida* ishtirok etish sharti hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali qimor o'yinlari o'tkazilganda, yutuq haqidagi "*kelishuv tuzilgan joy*" sifatida o'yin serverining joylashuvi emas, balki o'yinda ishtirok etayotgan va garov tikayotgan jismoniy shaxsning joylashgan joyini tan olish lozim.

O'rganilgan bezorilik bilan bog'liq jinoyat ishlari shuni ko'rsatadiki, ularning 43 foizdan ortig'i ko'chada; bozorlarda – 27 foizdan ortig'i; restoran va boshqa ovqatlanish joylarida – 10 foizi; jamoat transporti yoki avtoturargohlarda – 9 foizi; gastronomlar, mini va supermarketlarda – 6 foiz; boshqa joylar (bog', stadion, ko'ngilochar markaz va boshq.)da – 5 foizi⁵ sodir etilgan.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni noqonuniy tashkil etish joylari tuzilishining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni o'tkazishning an'anaviy joylariga qo'shimcha ravishda ijtimoiy tarmoqlar (virtual makon) ham qo'shilgan. Bunda turar-joy (uy, kvartira) – 40 foiz, fermer xo'jaliklari – 20 foiz; ijaraga olingan binolar (maxsus jihozlangan xona) – 18 foiz; o'yin qurilmalarini joylashtirish uchun moslashtirilgan boshqa binolar – 22 foiz⁶.

Kriminalistik adabiyotlarni tahlil qilish hamda olimlar va amaliyotchi xodimlarning fikrlarini o'rganish asosida muallif shunday xulosaga keladiki, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasining tuzilishini nazariy jihatdan yoritish uchun xususiy tergov metodikasining makon va zamondagi tuzilishini faraz sifatida taklif etish mumkin. Shu bilan birga, bezorilik va qimor hamda boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasi tuzilmasini quyidagilardan iborat tizim sifatida tasavvur qilish mumkin: *tergov vaziyati; tergov harakatlarini o'tkazishning taktik usullari; tergovning tegishli bosqichlarida amalga oshiriladigan isbotlash predmeti*. Har bir tarkibiy qism o'zining makon va zamon tuzilishiga ega bo'lib, tergov bosqichlarida eng maqbul hal qilish usuliga ega bo'lishi lozim.

Dissertatsiyaning "**Sudgacha bo'lgan ish yuritishda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasi bosqichlari algoritmining xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tergov organlari harakatlarining *algoritmi* va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning tekshiruv, boshlang'ich, keyingi va yakuniy bosqichlarida ushbu jinoyatlarni tergov qilish metodikasidan foydalanish masalalari batafsil tahlil qilingan.

Tekshiruv bosqichi *o'zaro bog'liq ikkita elementni* o'z ichiga olishi qayd etilgan. *Birinchi element* bezorilik belgilarini aniqlashga yoki qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazishga qaratilgan tashkiliy-tekshiruv tadbirlarini amalga oshirish bilan tavsiflanadi. *Ikkinchi element*

⁵ Dissertatsiyaning 4-ilovasi.

⁶ Dissertatsiyaning 5-ilovasi.

esa jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar jinoyat-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan tergov harakatlari va protsessual tadbirlarni o'tkazish orqali daliliy ma'lumotlarni to'plashning protsessual tartibiga asoslangan kriminalistik taktikani ifodalaydi.

Dissertatsiyada *qimor o'yinini tashkil etish bosqichi* yoritiladi. Bunda o'yinchilarning kelishuv doirasidagi faoliyatini nazarda tutadi. Bunda ularning harakatlari noqonuniy o'yin tashkilotchisi belgilagan qoidalarga asoslanadi, chunki yutuq haqidagi kelishuvni tuzayotganda o'yinchilar va tashkilotchilar har qanday holatda ham belgilangan qoidalarga rioya qilishga majbur bo'ladilar. Shunday qilib, qimor o'yinini tashkil etish deganda, tavakkalchilikka asoslangan yutuq to'g'risidagi kelishuv doirasida barcha ishtirokchilar (tashkilotchilar va o'yinchilar) faoliyatini tushunish taklif etiladi. Jamoat joylarida yurish-turish qoidalarini ataylab mensimaslikda namoyon bo'ladigan bezorilikni tergov qilishning tekshiruv bosqichi algoritmi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar raqamli *video izlar* shaklida kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati bilan bog'liq. Zamonaviy umumiy videokuzatuv sharoitida bu izlar tergovning tekshiruv bosqichi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etishga oid jinoyatlar soni ortib bormoqda. Ushbu turdagi jinoyatlar bo'yicha qo'zg'atilgan va qayd etilgan jinoyatlar soni 2019-yilda 61 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqam 95 taga, 2021-yilda 115 taga, 2022-yilda 156 taga, 2023-yilda 171 taga yetdi va 2024-yilda 208 taga oshgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tergovga qadar tekshiruv bosqichida mavjud bo'lgan kamchiliklar jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Respondentlarning 52 foizi tergovga qadar tekshiruv materiallari belgilangan muddatning so'nggi kunlarida yetarli darajada sifatli rasmiylashtirilmasdan va noto'liq holda topshirilishini qayd etganligi xavotir uyg'otadi. Bu esa tergovchining protsessual harakatlarni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi, tezkorlikni pasaytiradi va asoslangan tergov tusmollari shakllantirishni qiyinlashtiradi. Ushbu holatlar boshqa qoidabuzarliklar (hodisa joyini sifatsiz ko'zdan kechirish – 21%, ekspertizalarni o'z vaqtida tayinlamaslik – 15%, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilish – 12%) bilan bir qatorda tergovga qadar tekshiruvning sifati, to'liqligi va o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlashning dolzarbligini ko'rsatadi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish tizimida *tekshiruv bosqichi* eng muhim o'rin egallashi haqidagi xulosani asoslantiradi. Chunki bu bosqich jarayonida keyinchalik tergovni muvaffaqiyatli olib borish uchun poydevor yaratiladi. Ko'rib chiqilayotgan bosqichning mazmunini tekshiruv tadbirlari va jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkaziladigan bir qator kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari tashkil etadi. Bular jinoyatni yuridik jihatdan to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan daliliy ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan. Shu bilan birga, tekshiruv tadbirlari ko'p hollarda kechiktirib bo'lmaydigan xususiyatga ega, chunki aynan ular jamoat tartibiga qarshi sodir etilgan jinoyat belgilari mavjudligini yoki yo'qligini

aniqlash hamda jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Ushbu bosqich yakuni bezorilik yoki qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish yoxud o'tkazish ehtimolini ko'rsatadigan yoki bu jinoyatlar belgilarining yo'qligini tasdiqlaydigan ma'lum hajmdagi ma'lumotlar to'planishi va tegishli qaror chiqarilishi bilan belgilanadi.

“Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasining boshlang'ich bosqichida tergov organlari harakatlari algoritmining o'ziga xos xususiyatlari” nomli ikkinchi paragrafda mahalliy va xorijiy kriminalist olimlarning ilmiy ishlari asosida ularning ushbu bosqich haqidagi fikrlari o'rganilgan. G. Abdumajidov, Y.A. Abdulxakov, O.D. Allanazarov, Sh.T. Jumanov, A.A. Zakrullayev, D.E. Karimova, A.A. Matchanov kabi mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlaridagi ko'rib chiqilayotgan bosqich haqidagi fikrlarini o'rganib, ilmiy munozaraga kirishgan. Dissertant A.A.N.S. Bushkevich, V.I. Zaxarevskiy, Y.I. Ovcharenko, O.G. Sebyakin, Y.V. Ryabov, E.N. Xarina, V.A. Shuruxnov, O.V. Usenko kabi xorijiy olimlarning fikrlarini tanqidiy o'rganib, ushbu bosqichda to'g'ri qo'llanilgan maxsus metodika jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tez va sifatli tergov qilishga yordam beradi, degan xulosaga keladi. Ushbu bosqichda ishning qanday tashkil etilganligi, tergov va boshqa protsessual harakatlarni o'tkazish taktikasini to'g'ri tanlash, ularni malakali va o'z vaqtida amalga oshirish keyingi tergov va jinoyat ishi bo'yicha butun ish yuritishning ijobiy natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etgan.

Tergov organlari xodimlarining so'rovnoma natijalariga ko'ra, so'ralgan respondentlarning 71 foizi hodisa joyini ko'zdan kechirishning to'g'ri qo'llanilgan taktikasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Xodimlarning 80,4 foizi esa so'roq qilish taktikasi hamda dalillarni aniqlash, to'plash, tekshirish va baholashga qaratilgan axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq taktik usullar va kombinatsiyalarning muhimligini qayd etgan. Tergovning boshlang'ich bosqichida *tergovchining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar bilan o'zaro hamkorligi kabi* tergov-taktik kombinatsiyaning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Bu kombinatsiya sodir etilgan jinoiy qilmishga aloqador shaxslarni aniqlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish hamda bezorilik va tavakkalchilikka asoslangan qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish yoki o'tkazishni sifatli tergov qilishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni o'tkazishning taktik usullaridan foydalanish imkonini berishi qayd etilgan.

Statistikaga ko'ra 2024-yilda sodir etilgan bezoriliklar soni 2018-yilga nisbatan 234,95 foizga, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etish esa 216,6 foizga oshgan. Bu esa olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligini va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirish zarurligini namoyon etadi.

Bezorilik va qimor yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etishni tergovning dastlabki bosqichini tizimli-tuzilmaviy tahlil qilish o'tkazilgan tergov va protsessual harakatlarning tarkibiy dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Muallif tomonidan ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarni tergov qilishda qo'llanilgan *vaziyatli yondashuv* real vaziyatga ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan tergov harakatlarini o'tkazish, aniq faoliyat dasturini ishlab chiqish va eng maqbul taktik qarorni qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu qaror tergov harakatini o'tkazish, ma'lum bir taktik usulni qo'llash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. *Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, so'roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ekspertiza tayinlash va boshqa tergov hamda protsessual harakatlarni* qisqa vaqt ichida va maqbul ketma-ketlikda o'tkazish taktikasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bezorilik jinoyatini tergov qilishning dastlabki bosqichida tergov harakatlarini o'tkazishda taktik usullarning ahamiyati haqidagi savolga javob bergan xodimlarning 87 foizi taktik usullarni bilish ularni o'tkazish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini bildirgan⁷. Bu esa mazkur turdagi jinoyatlarni samarali tergov qilishda taktik usullarning ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi..

Tadqiqot natijalari so'roq o'tkazish taktikasini zamonaviy axborot-raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali belgilash imkonini beradi. Bu quyidagilarni ta'minlaydi: sun'iy intellekt yordamida so'roq o'tkazish; yagona autentifikatsiya va identifikatsiya tizimidan foydalangan holda biometrik so'roq (avatar-so'roq) o'tkazish. So'roq o'tkazishning axborot-raqamli vositalarini shakllantirishda "Internet" telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanish taklifi asoslantirilgan. Ushbu bosqich yakunida shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

"Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning keyingi va yakuniy bosqichlarida tergov organlarining harakatlar algoritmi" deb nomlangan uchinchi paragrafda tergovchining (surishtiruvchining) tergovning *keyingi va yakuniy bosqichlaridagi* harakatlar algoritmi bilan bog'liq muammolar, uning tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar bilan o'zaro hamkorligi, ularning birgalikdagi muvofiqlashtirilgan harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Keyingi bosqichda quyidagi xususiyatga ega bo'lgan tipik tergov vaziyatlari aniqlangan: a) ayblanuvchi o'z aybini to'liq tan oladi; b) ayblanuvchi o'z aybini qisman tan olib, nizoli vaziyatni yuzaga keltiradi; c) ayblanuvchi o'z aybini tan olmaydi; d) ish bo'yicha boshqa ishtirokchilarni aniqlash bilan bog'liq yangi holatlar vujudga keladi. Bunda tergovchi va surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar bilan hamkorlikda, shaxs ishda ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilingandan so'ng boshqa zarur tergov va protsessual harakatlarni o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi olimlari (Y.A.Abdulxakov, O.D.Allanazarov, A.X.Asamutdinov, A.A.Zakrullayev, Sh.X.Inomjonov, D.E.Karimova, Sh.A.Qulmatov, A.A.Matchanov, D.M.Mirazov, M.E.Mo'minov, B.B.Murodov, S.A.Nurumbetova, B.A.Rajabov, B.N.Rashidov, B.X.Ruzmetov, A.A.Xamdamiyov, A.Sabirbayeva va boshq.) tomonidan e'lon qilingan ishlarning ilmiy tahlili asosida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning keyingi va yakuniy bosqichlarida tergovchi, surishtiruvchi hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar faoliyati algoritmi o'rganib chiqildi. Ushbu tahlil natijasida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning keyingi va yakuniy bosqichlaridagi harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Xususan,

⁷ Dissertatsiyaning 2-ilovasi

bezorilikni tergov qilish, qimor va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etishga mas'ul bo'lgan organlar va mansabdor shaxslarning harakatlar algoritmi innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha zarur uslubiy tavsiyalarga yetarli darajada javob bermasligi ma'lum bo'ldi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 86 foizi tergov ishining keyingi va yakuniy bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanmaslik bilan bog'liq muammolar mavjudligini tasdiqlagan. O'rganilgan jinoyat ishlarining 83 foizida ko'zdan kechirish, so'roq, yuzlashtirish, tintuv, olib qo'yish, tanib olish uchun ko'rsatish va ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish kabi tergov harakatlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda kamchiliklar aniqlangan.

Dissertant tomonidan ilk bor jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda bezorilik va qimor o'yinlarini tashkil etishda elektron ma'lumotlar hamda ularning tashuvchilarini ko'zdan kechirish bo'yicha kriminalistik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Virtual makonda (qurilmalar, gadjetlar, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki Internet resurslari, ularning bulutli xizmatlari) sodir etilgan bezorilik va qimor o'yinlarini tashkil etish to'g'risidagi daliliy ma'lumotlarni izlash, olish va hujjatlashtirishning tashkiliy-taktik xususiyatlari asoslab berilgan. Elektron axborot tashuvchilarni ko'zdan kechirishda tekshirilayotgan tashuvchidagi ma'lumotning bitma-bit⁸ nusxasini yaratish imkonini beruvchi dasturiy-apparat komplekslaridan foydalanish zarurligi to'g'risidagi xulosa asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning ilg'or xalqaro tajribasi va undan tergov organlarining huquqni qo'llash amaliyotida foydalanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Muallif Avstraliya, Braziliya, Vengriya, Buyuk Britaniya, Misr, Isroil, Hindiston, Indoneziya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Xitoy, Meksika, Moldova, Polsha, AQSh, Germaniya, Fransiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarning jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish tajribasini o'rgandi. Bundan tashqari, MDH davlatlarining, jumladan, Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi va Tojikistonning jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Ingliz-sakson huquq tizimi vakillari sifatida Buyuk Britaniya va AQSH, roman-german huquq tizimi vakillari sifatida Fransiya, Germaniya, Xitoy va MDH tajribasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu davlatlar ushbu turdagi jinoyatlarni samarali tergov qilish uchun o'ziga xos kriminalistik metodika va innovatsion texnologiyalarga ega. Bunda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda zarur bo'lgan tergov va protsessual harakatlar algoritmidan qo'llaniladigan taktik usullarga urg'u berildi. Xususan, metama'lumotlar, internet-trafik, qurilmalar,

⁸ Bit bo'yicha axborot nusxasi - kriminalistik tahlil uchun mo'ljallangan tashuvchining to'liq raqamli nusxasi bo'lib, u barcha ma'lumotlarni, xususan, yashirin, o'chirilgan va tizimli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

ijtimoiy tarmoqlar va boshqa manbalardan olingan raqamli ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va vizuallashtirish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan bezorilik va noqonuniy qimor o'yinlariga oid maxsus usullar yordamida raqamli dalillarni to'plash va tahlil qilish masalalari ko'rib chiqildi.

Dissertant AQSH, Buyuk Britaniya va Kanadada bezorilikni tergov qilish hamda qimor va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etishning maxsus metodikasining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Bu mamlakatlarda mazkur turdagi jinoyatlar Internetning axborot va virtual makonida ko'payish tendensiyasiga ega. Shuningdek, internet makonida qimor yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar soni ham ortib bormoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasi kiberxavfsizlikni takomillashtirish va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning maxsus uslubiyatlarini ishlab chiquvchi maxsus laboratoriyalar faoliyatiga asoslangan. Bu laboratoriyalar zamonaviy kriminalistik tergov uslubiyatidan foydalangan holda, axborot texnologiyalarini qo'llagan tergov harakatlarini o'tkazish taktikasini maqbullashtirishga qaratilgan.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatdiki, global Internet tarmog'idan foydalangan holda qimor o'yinlarini o'tkazish va bezorilik harakatlarini amalga oshirish tartibi va shartlari deyarli bir xil bo'lib, faqat juz'iy farqlari bilan ajralib turadi. Qimorxona ma'murlari mijozlardan pul mablag'larini oladilar, buning evaziga shaxsiy kabinet va qimor o'yinlarini o'z ichiga olgan nazorat ostidagi internet-sayt hisobvarag'idan foydalanish uchun login va parol beradilar. Bu yerda mijozlar ko'rsatilgan hisobvaraqdan foydalanib pul tikishlari mumkin. Yutgan taqdirda, pul mablag'lari qimor fondidan to'lanadi. Jinoyatchilar o'rtasidagi aloqa mobil aloqa va uning ilovalari (WhatsApp, Viber, Telegram va boshq.) orqali amalga oshiriladi.

Shu munosabat bilan, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik uslubiyati nazariyasidagi xorijiy tajriba haqiqatlarini inobatga olgan holda, tergov harakatlarini o'tkazishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning puxta ishlab chiqilgan taktikasi dalillarni qo'lga kiritishning kafolati ekanligini ta'kidlovchi olimlarning nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Xususan, Buyuk Britaniyaning Saffordshir universiteti jamoasi hodisa joyini ko'zdan kechirishda virtual reallikdan foydalanishning innovatsion uslubini ishlab chiqdi.

Dissertant xorijiy tajribani o'rganish asosida tergovning ko'rib chiqilayotgan bosqichlarida tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar faoliyatiga nisbatan o'z mualliflik nuqtayi nazarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga, kibermakonda bezorilik va qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etishda raqamli dalillarni olish va qayd etish uchun "Vogon International, Gen Tree, Ilook" dasturiy ta'minoti bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorlangan IT-mutaxassislarni jalb etish taklifi ilgari surilgan.

Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida muallif tomonidan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirish yo'nalishlari tizimi ishlab chiqilgan.

Birinchi yo'nalish – raqamli kriminalistika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalanishga asoslangan izchil tergov harakatlarini

o'tkazish taktikasini ishlab chiqish bo'lib, bu tergovning yaxlitligi va birligini ta'minlaydi.

Ikkinchi yo'nalish – jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda tergov harakatlarini o'tkazish algoritmining boshlang'ich, asosiy va yakuniy bosqichlarida raqamli kriminalistikadan foydalanish taktikasining ilg'or xorijiy tajribasini joriy etish.

Uchinchi yo'nalish – jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish (profilaktika) bo'lib, u ushbu jinoyatlarga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish choralari ko'rish maqsadida tergovning yakuniy bosqichida batafsil ish rejasiga kiritilgan ketma-ket harakatlar bosqichlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bu harakatlarni muayyan tizimga birlashtirish ular o'rtasida qonuniy xususiyatga ega bo'lgan va miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalangan aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Aynan shunday aloqalarning mavjudligi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasidan xususiy metodikaning bir qismi sifatida, aniq bir algoritm ko'rinishida foydalanish imkonini yaratadi.

O'tkazilgan tadqiqot asosida dissertant tomonidan raqamli kriminalistika imkoniyatlaridan foydalanish qonuniyatlariga asoslangan axborot va raqamli texnologiyalarni qo'llashning konseptual yondashuviga tayanib, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasiga innovatsion yondashuv ishlab chiqilgan.

Bezorilikni tergov qilish metodikasini takomillashtirish hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etishni tekshirishning strategik yo'nalishlaridan biri jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sifatli tergov qilishga yo'naltirilgan axborot raqamli texnologiyalar (bundan keyingi o'rinlarda – ART) va sun'iy intellekt (bundan keyingi o'rinlarda – SI)dan eng maqbul foydalanish taktikasini takomillashtirishdir.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirishda ART va SIDan foydalanishning muhim jihati *funksional-vaziyatli yondashuvdir*. Bu yondashuv quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: *uslubiy*: kuch va vositalarni kamaytirish uchun tergovchi harakatlarining aniq ketma-ketligi ishlab chiqiladi; *tashkiliy*: tipik vaziyatlar haqidagi bilimlarni real vaziyatlar bilan taqqoslash, texnik va kriminalistik vositalardan foydalanish; *taktik*: tergovchining oqilona taktik qaror qabul qilishi va xulq-atvor yo'nalishini belgilashi.

Ko'rib chiqilayotgan toifadagi jinoyatlar bo'yicha axborot tashuvchilarni ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan bog'liq: bezorilik va qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish uchun ART va SIDan foydalanish usullari; tergovchining ART va SI tashuvchisiga hamda uning axborot makoniga jismoniy kirish imkoniyati; kontentga masofadan turib kirish imkoniyati; tergovchi (mutaxassis)da zarur bilimlarning mavjudligi; ART va SI tashuvchisining turi.

Tergov harakatlari va taktik operatsiyalarni o'tkazishda ART va SIning qo'llashning o'ziga xos algoritmini hisobga olish zarur, chunki ular tashkiliy, protsessual, taktik va psixologik tarkibiy qismlardan iborat murakkab tuzilmani tashkil etadi. Bu, ayniqsa, kiberbezorilik va axborot texnologiyalaridan foydalangan

holda qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish holatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ularni tergov qilish metodikasini takomillashtirish maqsadida dissertant quyidagi yangi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatdi: 1) Internet tarmog'idagi bezorilik hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni noqonuniy tashkil etishni aniqlash, oldini olish va tergov qilishda yordam beruvchi foydalanuvchilar xatti-harakatlaridagi qonuniyatlar va anomaliyalarni aniqlovchi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini qo'llash; 2) onlayn makondagi firibgarlik tranzaksiyalari yoki bezorilik harakatlari kabi shubhali faoliyat namunalarini avtomatik aniqlash uchun SI algoritmlaridan foydalanish; 3) noqonuniy operatsiyalarning oldini olish maqsadida qimor o'yinlaridagi tranzaksiyalarning shaffofligini ta'minlash va kuzatish uchun blokcheyn texnologiyasini qo'llash; 4) ma'lumotlarni himoya qilish va foydalanuvchilar maxfiyligini ta'minlash, shuningdek, tranzaksiyalarni autentifikatsiya qilish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun kriptografik usullar texnologiyasidan foydalangan holda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish; 5) foydalanuvchilar faolligini real vaqt rejimida kuzatish, shubhali xatti-harakatlarni aniqlash va kiberbezorilik yoki noqonuniy o'yinlarni tashkil etish bilan bog'liq ma'lum turtkilarga javob berish imkonini beruvchi monitoring va ogohlantirish tizimini qo'llash; 6) Internet ijtimoiy tarmog'ida va kontentni tahlil qilishda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullaridan foydalanib, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va izohlarni tahlil qilish orqali kiberbezorilik holatlarini aniqlash; 7) qimor o'yinlari va kiberbezorilik bilan bog'liq noqonuniy faoliyatni aniqlash maqsadida veb-saytlar, forumlar va messenjerlar kabi onlayn resurslarni o'rganishda raqamli razvedka vositalaridan foydalanish; 8) server loginlari, tranzaksiya ma'lumotlari va foydalanuvchi profillari kabi raqamli dalillarni olish va tahlil qilish uchun raqamli sud ekspertizasidan foydalanish; 9) noqonuniy qimor o'yinlari platformalarida foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish uchun biometrik ma'lumotlardan foydalanish.

Tadqiqot natijalari "raqamli kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumot" tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqish imkonini berdi. Bu tushuncha ostida jamoat tartibiga qarshi jinoyat hodisasi va u bilan bog'liq boshqa holatlar haqidagi, raqamli qurilma xotirasida aks etgan har qanday ma'lumotlar nazarda tutiladi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda ART va SIDan eng maqbul foydalanish mexanizmi bo'yicha mualliflik nuqtayi nazari shakllantirildi. Bu mexanizm ma'lumotlarning raqamli shaklda harakatlanishini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasida raqamli texnologiyalarning alohida turlari ajratib ko'rsatilgan: sodir etilgan jinoyat holatlariga oid raqamli video va audio ma'lumotlarni mustahkamlash, to'plash, saqlash va qayta tiklash uchun mo'ljallangan raqamli videokuzatuv; abonentlar yoki foydalanuvchilarni aniqlash hamda ularning joylashuvi haqida ma'lumot olish uchun GPS-navigatsiya va radiolokatsiya; jinoyat hodisasi elementlarini namoyish etish maqsadida alohida tasvirlar yoki videofragmentlarni yaratish (sintez qilish) uchun kompyuter grafikasi yoki animatsiyadan foydalanish; elektron hujjatni yaratgan yoki yuridik ahamiyatga ega harakatni amalga oshirishni rejalashtirayotgan shaxsni

tasdiqlash uchun elektron imzo va biometrik shaxsiy ma'lumotlardan foydalanib axborotni himoya qilish va identifikatsiyalash/autentifikatsiyalash; tergov, protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbirlarini masofadan turib o'tkazishni ta'minlash maqsadida real vaqt rejimida to'liq tasvir olish va yuqori sifatli ovozli kuzatib borish uchun video va audio axborotni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yagona tarmog'i orqali tezkor uzatishga mo'ljallangan yuqori texnologiyali axborot tizimi (ilova) sifatida videokonferensaloqa. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasida raqamli texnologiyalarning alohida turlari ajratib ko'rsatilgan: sodir etilgan jinoyat holatlariga taalluqli raqamli video va audio ma'lumotlarni mustahkamlash, to'plash, saqlash va qayta tiklash uchun mo'ljallangan raqamli videokuzatuv;

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda turli tergov harakatlarini masofadan amalga oshirish uchun 3D model qo'llaniladi. Buni, ayniqsa, "hodisa sodir bo'lgan joyda so'roq o'tkazish" taktik usulini qo'llashda ishlatish muhim. So'roq qilinayotgan shaxs aytganlarini voqea joyida tushuntirib berishi mumkin. 3D model isbotlash jarayonida foydalanish uchun ko'rgazmali tasvirlash vositasi hisoblanadi. Sferik 3D-skanerlash usullarini qo'llash nafaqat uch o'lchovli modelni kompyuter ekraniga chiqarish, balki uni kompyuter yordamida yaratilgan virtual muhitda ham ishlatish imkonini beradi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasida raqamli (elektron) qurilma xotirasida sun'iy saqlash muhitida, axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida uzatish jarayonida va SI ma'lumotlar bazalarida yoki axborot tizimlari resurslarida to'planishi bilan bog'liq bo'lgan elektron kriminalistik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash, mustahkamlash (qayd etish), o'rganish, tekshirish (taqqoslash) va baholash (qayta ishlash)ning taktik usullarini bilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni izlash va ajratib olish amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, ma'lumotlarni qayd etishning mavjud usullari (og'zaki, predmetli, ko'rgazmali-tasviriy, grafik, aralash) bilan bir qatorda, axborotni mustahkamlashning raqamli shakli ham ajratib ko'rsatilgan. Muallif zamonaviy sharoitda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasi SI va raqamli kriminalistika sohasidagi yutuqlarga asoslanishi haqidagi xulosani asoslantiradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalarga ajratilgan holda bayon etilgan:

I. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasiga oid ilmiy-nazariy bilimlarni boyitishga qaratilgan taklif va tavsiyalar:

1. Yangi ishlab chiqilgan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik metodikasi kriminalistika fanining innovatsion yutuqlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari algoritmiga asoslanib, tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar harakatlarining tuzilishi hamda xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur xususiy metodika quyidagi elementlardan iborat: kriminalistik tavsif, rejalashtirish,

tusmollarni ilgari surish, tipik tergov vaziyatlari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar va ayrim tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi.

2. Quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'riflari taklif etilgan: *bezorilik niyatlari; bezorilikni tergov qilish; qimor o'yini; tavakkalchilikka asoslangan kelishuv; o'yin jihozlari; jinoyat quroli; daromad; lotereya va boshqalar.*

3. Kriminalistik adabiyotlar va empirik manbalar tahlili hamda muallifning amaliy tajribasi asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bezorilikni jinoyatini tergov qilishning kriminalistik metodikasi – bu isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar va kvalifikatsiyalovchi belgilarga qarab, tergov bosqichlariga oid nazariy jihatlar va amaliy tavsiyalar shaklida tizimlashtirilgan, bezorilik jinoyatini tergov qilish jarayonida protsessual va tergov harakatlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish orqali qo'llaniladigan taktik usullar va choralar, shuningdek ushbu turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi elementlarining tizimi hisoblanadi.

4. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazishni tergov qilish metodikasi deganda, qimor o'yinlarini noqonuniy tashkil etish to'g'risidagi daliliy ma'lumotlarning paydo bo'lishi, to'planishi, tekshirilishi, baholanishi va ulardan foydalanish qonuniyatlari haqidagi, zarur mutaxassislarni jalb etgan holda qimor o'yinlarini o'tkazish holatlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan taktik tavsiyalar, usullar, uslublar va vositalarni o'z ichiga olgan kriminalistik qoidalar tizimi tushuniladi.

5. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish metodikasi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: tekshiruv bosqichi tergovga qadar tekshiruv bilan bir vaqtga to'g'ri keladi va sodir etilgan jinoyat faktini hamda jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan (agar tergovga qadar tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa, bu bosqich amalga oshirilmaydi); *boshlang'ich* bosqich jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlanadi va shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun zarur bo'lgan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan tergov va protsessual harakatlarni o'z ichiga oladi; *keyingi* bosqich tergovning bir qismi bo'lib, unda tergovchi (surishtiruvchi) aybdorning boshqa jinoyat epizodlari yoki turlarida ishtirok etganligi, sodir etilgan jinoyatning barcha holatlarini aniqlash to'g'risidagi dalillarni to'plashni davom ettiradi. Bu jinoyat ishi bo'yicha tergovni tugatish masalasini hal qilish uchun zarur; *yakunlovchi* bosqich jinoyat ishi materiallarini protsessual rasmiylashtirish va tizimlashtirish, ayblov xulosasi (dalolatnomasi)ni tasdiqlash va ishni sudga yuborish uchun prokurorga taqdim etishga qaratilgan.

6. Bezorilik jinoyatlarini hamda telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni noqonuniy tashkil etish yoki o'tkazishni tergov qilish metodikasini takomillashtirish maqsadida jamoat tartibini buzish bilan bog'liq jinoiy qilmishlarning raqamli izlari tasnifini ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu tasnifdan foydalanish tergovchilarning jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning virtual izlarini topish va qayd etish, sodir etilgan jinoyat haqidagi elektron ma'lumotlarni ko'zdan kechirish ishlarini maqbullashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, u umumiy va xususiy tergov tusmollarni ilgari surishga hamda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomonini isbotlashga yordam beradi.

7. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning tekshiruv bosqichi metodikasi ishlab chiqilgan va u eng ko'p uchraydigan tergov harakatlarini o'tkazishning taktik usullari majmuasini qo'llashni nazarda tutadi. Hodisa joyini ko'zdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari noqulay sharoitlar (joy, vaqt va vaziyat) bilan bog'liq bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlar orqali namoyon bo'ladi: 1) tashkiliy (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini, texnik-kriminalistik vositalarni tanlash va tayyorlash, ko'zdan kechirish chegaralarini belgilash va uning qo'riqlanishini ta'minlash va boshq.); 2) taktik (rejali o'tkazish; jabrlanuvchilar, mutaxassislar, ekspertlarni ko'zdan kechirishda ishtirok etishga jalb qilish; kvadrokopterlardan foydalanish; GPS, Google Maps, Global navigatsiya sun'iy yo'ldosh tizimi (GLONASS) va boshqalardan foydalanish); 3) psixologik (tez va operativ o'tkazish, psixologik ta'sirni yengish; tergovchining yuqori mas'uliyati va boshq.).

8. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda so'roq o'tkazish taktikasining maxsus texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: tergovchining jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilarining turlariga qarab so'roq taktik usullarini tanlash omillari; sodir etilgan jinoyat holatlarini aniqlash, gumon qilinuvchining qarshiligini yengish, psixologik aloqa o'rnatish, jinoiy guruhni tarqatib yuborish, to'g'ri ko'rsatuvlar olish uchun sharoit yaratish va boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan tergov vazifalariga muvofiq so'roq taktik usullarini tasniflash.

9. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda tanib olish uchun ko'rsatish taktikasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan bo'lib, u quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: *tashkiliy* (bir nechta gumon qilinuvchini tanib olish uchun ko'rsatish zarurati, o'tkazishning eng maqsadga muvofiq paytini aniqlash, jabrlanuvchining stress holatida bo'lishi va boshq.); *taktik* (statistlarni tanlash, bir vaqtning o'zida bir nechta gumon qilinuvchini tanib olish uchun ko'rsatish, ovoz bo'yicha tanib olish uchun ko'rsatish, ketma-ketlikni belgilash va boshq.); *psixologik* (tanib oluvchini tayyorlash, tanib oluvchi va tanib olinuvchi o'rtasidagi ko'z aloqasini istisno qiladigan sharoitlarni yaratish va boshq.).

II. Qonunchilik normalarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar:

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual va Jinoyat kodekslariga jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda tergov harakatlarini o'tkazishning protsessual tartibi va taktikasini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining "Dalillar turlari" deb nomlangan 81-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarini quyidagi tahrirda bayon etish:

*"Jinoyat ishi bo'yicha dalillar har qanday faktik ma'lumotlar, **shu jumladan raqamli texnologiyalar yordamida olingan ma'lumotlar** hisoblanib, ular asosida surishtiruv organi, tergovchi va sud qonunda belgilangan tartibda ijtimoiy xavfli qilmishning mavjudligi yoki yo'qligini, ushbu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdorligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlaydilar.*

*Bu ma'lumotlar guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, **raqamli** ovoz yozish, videoyozuv va kinotasvirga olish materiallari, tergov va sud harakatlari bayonnomalari, **so'rov bayonnomalari** hamda boshqa hujjatlar orqali aniqlanadi*".

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirish:

"Uzluksiz 8 soat davomida ko'rsatuv berishning fiziologik imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tibbiy muassasaning xulosasiga ko'ra so'roq qilish muddati qisqartirilishi mumkin. Qo'shimcha so'roq tibbiyot muassasasining ruxsati bilan o'tkazilishi mumkin".

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 126-moddasi quyidagi tahrirda bayon etish: *"Tanib oluvchi tanib olinishi lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, yuz xususiyatlari, **ovoz belgilari va nutq xususiyatlari haqida dastlab so'roq qilinishi shart**"*.

4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining "Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi" deb nomlangan 127-moddasi to'rtinchi qismini quyidagi mazmundagi qoida bilan to'ldirish:

*"Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish imkoni bo'lmaganda yoki xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uning fotosuratidan **yoki videotasviridan, shu jumladan, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatning videotasviridan foydalanish mumkin**"*.

5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 127-moddasini quyidagi mazmundagi yangi qism bilan to'ldirish: *"**Tanib olish jismoniy shaxsni ovozi, nutqi, yurish-turishi va boshqa fiziologik belgilariga qarab aniqlash uchun ham o'tkazilishi mumkin**"*.

Yettinchi (ilgarigi oltinchi) qismni "va himoyachi" so'zlari bilan to'ldirib, quyidagi tahrirda bayon etish: *"Tanib oluvchining xavfsizligini ta'minlash maqsadida shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning qaroriga ko'ra tanib olinuvchining tanib oluvchini ko'rib turishini istisno etadigan sharoitlarda o'tkazilishi mumkin. Bunday holda xolislari va **himoyachi** tanib oluvchi turgan joyda bo'ladi*".

6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 140-moddasini quyidagi mazmundagi yangi uchinchi qism bilan to'ldirish:

"Ko'zdan kechirish jarayonida raqamli axborot tashuvchida mavjud bo'lgan va yangi jinoyatlarni sodir etish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan yoxud mutaxassisning bayonotiga ko'ra nusxa ko'chirish uning yo'qolishiga yoki o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan axborotning tarkibi, mazmuni va xususiyatlarini o'rganish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ko'zdan kechirishni amalga oshirayotgan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud mutaxassis yordamida ushbu elektron ma'lumot tashuvchilarni olib qo'yadi".

7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 146-moddasini quyidagi mazmundagi yangi to'rtinchi qism bilan to'ldirish:

“Guvohlantirish tergov olib borilayotgan joyda, tibbiy muassasada, zarur hollarda esa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning qaroriga binoan boshqa joylarda ham o‘tkazilishi mumkin”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 207-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirish: “Narsa ashyoviy dalil deb e’tirof etilishi uchun u qonunda belgilangan tartibda olib qo‘yilishi, olib qo‘yilgan vaqtda yoki keyinchalik ko‘zdan kechirilishi lozim”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 97-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirish: “Chaqiruv qog‘ozida kimning, qanday sifatda, qaysi manzilga va aynan kimning huzuriga chaqirilayotganligi, kelish kuni va soati, shuningdek uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmaslik oqibatlari ko‘rsatilishi hamda so‘roq paytida advokat ishtirok etish huquqi tushuntirilishi lozim”.

10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasining birinchi qismini quyidagi mazmunda bayon etish: “Bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, kaltaklash, yengil tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq holda, *qisqa muddatli sog‘liqning buzilishiga olib kelgan* yoki o‘zganing mulkini yo‘q qilish yoki shikastlash orqali jiddiy zarar yetkazgan holda sodir etilgan jinoyat”.

11. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 278-moddasining nomini quyidagi mazmundagi nomga o‘zgartirish: “*Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni noqonuniy tashkil etish yoki o‘tkazish*”.

III. Jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

1. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish metodikasi ishlab chiqildi. Unda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruvchi va tergovchining harakat tartibi belgilangan. Bu tartib quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) jinoyat haqidagi dastlabki ma’lumotlarni olish; 2) tasdiqlovchi va inkor etuvchi qo‘shimcha ma’lumotlarni to‘plash, ularni tekshirish va dastlabki tarzda qayd etish; 3) to‘plangan ma’lumotlar majmuasini baholash;

4) gumon qilinuvchi shaxslarni ushlash rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish; 5) dastlabki materiallarni rasmiylashtirish; 6) jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki materiallarni tegishli tergov organlariga yuborish masalasini hal qilish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277 va 278-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilishda ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Unda o‘ziga xos xususiyatlar ko‘rsatilgan bo‘lib, ularni hisobga olish tergovchiga taktik ustunlikka erishish va tergov harakatlarini samarali o‘tkazish imkonini beradi. Masalan, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda tergovchilar va ularning rahbarligidagi mutaxassis-kriminalistlar kriminalistik ekspertizalar imkoniyatlaridan yanada sinchkovlik bilan foydalanishlari lozim. Mazkur yo‘riqnoma va tavsiyalardan amaliyotchi xodimlar ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda foydalanmoqdalar.

3. Hodisa joyini ko‘zdan kechirishda axborot makonini kuzatish orqali bezorilik ishtirokchisi va arizachi o‘rtasidagi mobil aloqa bo‘yicha faol muzokaralarni aniqlash

taktik usuli ishlab chiqildi va joriy etildi. Shuning uchun aynan bezorilik sodir etilgan paytda yoki undan so'ng uyali telefonlar aloqalarini tahlil qilish jinoyat sodir etilish mexanizmi haqida ishonchli taxminlar yuritishga yordam beradi.

4. Dissertant tomonidan so'roq davomida ko'rib chiqiladigan savollarni tasniflash dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Ularning tasnifi quyidagicha:

1) *asosiy* (rag'batlantiruvchi) savollar – so'roq qilinuvchining erkin hikoyasini faollashtiruvchi, unda u yoki bu holatni yoritishga intilishni uyg'otuvchi; 2) *to'ldiruvchi* savollar – so'roq qilinuvchining erkin hikoyasida e'tibordan chetda qolgan faktlarni aniqlashga qaratilgan; 3) *aniqlashtiruvchi* savollar – tegishli ma'lumotlarni to'liqroq va aniqroq o'rnatishga yordam beruvchi; 4) *eslatuvchi* savollar – muayyan faktlar bilan bog'liq assotsiatsiyalarni keltirib chiqaruvchi va qiziqarli voqeani aniqroq esga olishga ko'maklashuvchi; 5) *detallashtiruvchi* (konkretlashtiruvchi) savollar – tasvirlanayotgan hodisaning alohida jihatlariga e'tiborni qaratadigan va sodir bo'lgan voqeaning batafsil va aniq manzarasini yaratishga imkon beruvchi; 6) *taqqoslovchi* savollar – so'roq qilinuvchining ko'rsatuvlarini ish bo'yicha olingan boshqa ma'lumotlar bilan solishtiradigan.

5. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida protsessual hujjatlarning namunalari ishlab chiqildi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: shaxsni videotasvir orqali tanib olish bayonnomasi, raqamli axborot tashuvchilarni ko'zdan kechirish bayonnomasi, shuningdek elektron tashuvchilarda aniqlangan iz manzarasi haqidagi ma'lumotnoma.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/30.12. 2019.Yu.25.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ТАДЖИЕВ АЗАМАТ АЛИБАЙЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКОЙ МЕТОДИКИ
РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО
ПОРЯДКА**

**12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика, оперативно-розыскное
право и судебная экспертиза**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.2.PhD/Yu205.

Диссертация выполнена в Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Рашидов Бекзод Нурбоевич

доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хамдамова Абдували Ахмедович

доктор юридических наук, профессор

Астанов Истам Рустамович

доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

Следственный департамент при МВД Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 20 июня 2025 года в 14:30 на заседании Научного совета DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 по присуждению ученых степеней при Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (Адрес: г. Ташкент, улица Интизор, д. 68. Тел./факс: (71) 265-22-52; (71) 265-17-53; e-mail: info@akad.mvd.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии МВД Республики Узбекистан (зарегистрирована под № AD- 1570). (Адрес: 100197, г. Ташкент, ул. Интизор, 68. Тел.: (998971) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Автореферат диссертации разослан 7 июня 2025 года.

Протокол реестра № 17 от 7 июня 2025 года.

А.С. Турсунов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

А.Д. Хусанов

Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

Ш.А. Кулматов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире преступления против общественного порядка имеют тенденцию к увеличению. Согласно информации Управления ООН по борьбе с наркотиками и преступностью, преступления, совершаемые в общественных местах, за последние годы возросло на 15-20 процентов¹. При этом большинство из них приобрели виртуальный характер, то есть совершаются в публичном информационном киберпространстве. В частности, за последнее десятилетие количество преступлений, связанных с проявлениями киберхулиганства, незаконной организации или проведении азартных и других основанных на риске игр с использованием инновационных информационных технологий, увеличилось практически на одну треть от общего количества², что обуславливает необходимость совершенствования методик расследования этой группы преступлений.

Проводимые современные научные исследования в сфере расследования преступлений против общественного порядка в целом направлены на оптимизацию криминалистической методики. Констатируется необходимость, обуславливающее повышение эффективности борьбы с нарушениями общественного порядка (хулиганства) и азартных игр, основанных на риске, расширение криминалистических исследований по направлениям дальнейшего совершенствования криминалистической методики расследования этой группы преступлений с позиций современных реальностей и тенденций развития информационных технологий с конкретизацией приемлемой и более целесообразной тактикой проведения следственных и других процессуальных действий. Это предполагает, что в центре внимания криминалистических научных исследований, сегодня выступают проблемы, не просто совершенствование методики и тактики расследования в традиционном подходе, а целесообразность их изучения с позиции глобального развития информационных технологий, с преломлением на формирование цифровой криминалистики и формулированием предложений по возможностям использования искусственного интеллекта в криминалистической науке.

За последние годы в Узбекистане, преступления против общественного порядка в общей структуре преступности составили 2,67 процентов в 2018 году, 2,83 процентов в 2019 году, 3,09 процентов в 2020 году, 3,06 процентов в 2021 году, 3,18 процентов в 2022 году и 3,13 процентов в 2023 году, а за 2024 года этот показатель составил 3,18%. Нарушение общественного порядка в виде хулиганства в 2024 году выросли в 2,35 раза по сравнению с 2018 годом, а незаконная организация и проведение азартных и других основанных на риске игр, выросли в 2,16 раза³. Данные статистические сведения указывают на рост подобных преступлений. Это демонстрирует актуальность и правовую необходимость всестороннего анализа проблем, связанных с совершением

¹ <https://www.unodc.org/unodc/ru/data-and-analysis/index.html> (Дата обращения: 25.01.2025)

² <https://www.statista.com/topics/780/crime/#statisticChapter> (Дата обращения: 25.01.2025)

³ Статистические данные Следственного Департамента МВД РУз 2018-2024 года.

преступлений и процессами их расследования именно в сфере криминалистики, в том числе проведения научных исследований, направленных на совершенствование частной криминалистической методики расследования преступлений против общественного порядка.

Это требует комплексного анализа проблем связанных с совершением этих преступлений и процессов их расследования, в том числе и проведения научных исследований, направленных на совершенствование частной криминалистической методики расследования преступлений против общественного порядка.

Настоящее исследование направлено на реализацию задач, определённых в Конституции Республики Узбекистан (в новой редакции), Указа Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № 60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указа Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № 158 «О Стратегии «Узбекистан–2030»»; Указа Президента Республики Узбекистан от 26 марта 2021 года № 6196 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью», Указа Президента Республики Узбекистан от 29 ноября 2021 года № 27 «Об утверждении Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан и мерах по её реализации», Указа Президента Республики Узбекистан от 10 августа 2020 года № 6041 «О мерах по дальнейшему усилению гарантий защиты прав и свобод личности в судебно-следственной деятельности», Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 апреля 2021 года № 5050 «О дополнительных организационных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью», Постановление Президента Республики Узбекистан от 30 ноября 2023 года № 381 «О мерах по усилению защиты прав потребителей цифровых продуктов (услуг) и борьбе с правонарушениями, совершаемыми с помощью цифровых технологий» Постановление Президента Республики Узбекистан от 22 января 2025 года № 17 «О мерах по внедрению системы подготовки профессиональных кадров в сфере борьбы с преступлениями, совершаемыми с использованием цифровых технологий», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 марта 2023 года № 121 «Об утверждении «Дорожной карты» по реализации Стратегии развития системы обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан в 2023 году» а также в других нормативно-правовых актах, регулирующих деятельность в данной сфере.

Связь исследования с основными приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике «I. Пути формирования и осуществления системы инновационных идей в социальном, правовом, культурном, экономическом, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Отдельные аспекты этой проблемы, решение которых, как правило, осуществлялось в рамках иной тематики или

отрасли права, изучались учеными Узбекистана в области уголовно-процессуального права Г.А. Абдумажидовым, З.Ф. Иногамжановой, Ш.А. Кулматовым, Д.М. Миразовым, Б.Б. Мурадовым, Ф.М. Мухитдиновым, М.Э. Муминовым, Б.А. Саидовым, А.Б. Сабырбаевой, Б.А. Ражабовым, Б.Н. Рашидовым, У.А. Тухташевой, А.О. Шарафутдиновым и др. Криминалистические аспекты раскрытия, расследования и предупреждения преступлений против общественного порядка затрагивались в своих работах учеными криминалистами Узбекистана О.Д. Алланазаровым, С.Н. Гордеевым, Ш.Х. Камилловым, Т.Б. Маматкуловым, А.А. Матчановым, К.А. Сабировым, Т.Р. Саитбаевым, Г.З. Тулягановой, Х.А. Тураббаевым, А.А. Хамдамовым и учеными в сфере уголовного права Р. Кабуловым, М.М. Каландаровым, А.А. Отажановым, М.Х. Рустамбаевым, А.С. Якубовым и др.

